BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY O'ZLIK VAGLOBAL DUNYOQARASHNI UYG'UN SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Qudratova Gulira'no Bekzod qizi
"Profi University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi Ta'lim faoliyati va tillar fakulteti talabasi

Anotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning milliy o'zligini anglash va global dunyoqarashini uyg'un shakllantirish, shuningdek, milliyqadriyatlarni ta'limga singdirish bilan birgalikda boshqa madaniyatlar ham qiyosiy o'rganiladi va hamkorlikdagi mashg'ulotlar hamda o'qituvchining pedagogik yondashish roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, milliy o'zlik, global dunyoqarash, milliy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot, madaniy xilma-xillik, pedagogik yondashuvlar, hamkorlikdagi mashg'ulotlar, jadidlar, jadidlar merosi.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические подходы к гармоничному Формированию национальной идентичности и глобального мировоззрения Учащихся в процессе начального образования. Наряду с интеграцией национальных ценностей в образовательный процесс сравнительно изучаются и другие культуры, а также анализируются совместные занятия и роль педагогического подхода учителя.

Ключевые слова: *начальное образование, национальная идентичность, глобальное мировоззрение, национальные ценности, межкультурная коммуникация, культурное разнообразие, педагогические подходы, совместные занятия, джадиды, наследие джадидов.*

Abstract

This article examines the harmonious development of primary school pupils' National identity and global worldview. It also analyzes the integration of national values into the educational process, the comparative study of different cultures, the role of collaborative activities, and the importance of teachers' pedagogical approaches in this process.

Keywords: *Primary education, national identity, global worldview, national values, intercultural communication, cultural diversity, pedagogical approaches, collaborative activities, the Jadids, Jadid heritage.*

Globallashuv sharoitida ta’limning muhim vazifalaridan biri milliy qadriyatlarini anglaydigan, o’zligini hurmat qiladigan boshqa xalqlar madaniyatiga ochiq munosabatda bo’ladigan shaxsni tarbiyalashdir. Bugungi kunda o’quvchilar nafaqat o’z xalqining tarixi, tili va an’analarini bilishi, balki boshqa madaniyatlarni ham tushunishi zarur.

Milliy o’zlik shaxsning o’z xalqi tarixi, tili, madaniyati va ma’naviy merosiga mansubligini anglashida namoyon bo’ladi. Global dunyoqarash esa turli xalqlar, madaniyatlar va umuminsoniy muammolar haqida tushunchaga ega bo’lishni anglatadi.

Boshlang’ich ta’lim davrida bolalarda muloqot madaniyati, o’ziga va boshqalarga hurmat hamda xulq-atvor me’yorlari shakllanadi. Shu sababli milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg’unlashtirish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish dolzarb vazifadir. Milliy o’zlikni anglash o’quvchining o’z xalqi tarixi, tili, madaniyati va ma’naviy merosiga qiziqishi hamda hurmati orqali shakllanadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari milliy qadriyatlarni oila, xalq og’zaki ijodi, ertaklar, maqollar va milliy bayramlar orqali o’zlashtiradilar.

Global dunyoqarash o’quvchining turli xalqlar, madaniyatlar va umuminsoniy masalalar haqida yoshiga mos bilimga ega bo’lishini anglatadi. Turli mamlakatlardagi bolalarning hayoti, urf-odatlari, bayramlari va o’yinlarini o’rganish madaniy xilma-xillik haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

UNESCOning global fuqarolik ta’limi konsepsiyasi dunyo miqyosidagi masalalarni tushunish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo’lish va mas’uliyatli ishtirokni rivojlantirishga qaratilgan[1]. Ushbu tamoyillarni boshlang’ich ta’limda yoshga mos matnlar, videoroliklar, rasmlar va muammolitopshiriqlar orqali qo’llash mumkin. Masalan, *“Dunyo bolalari”* mavzusida o’quvchilar turli mamlakatlarda yashovchi tengdoshlarining hayoti bilan tanishib, farqli va umuminsoniy jihatlarini aniqlaydilar. Bu ularda boshqa madaniyatlarni tushunish va hurmat qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

UNESCOning Languages Matter: *Global Guidance on Multilingua Education* qo’llanmasida ona tilida ta’lim olishni qo’llab quvvatlash, ko’p tilli ta’limni rivojlantirish va til xilma-xilligini hisobga olish muhimligi ta’kidlanadi[2].Milliy qadriyatlar xalqning tarixi, tili, urf-odatlari va ma’naviy merosini ifodalasa,umuminsoniy qadriyatlar adolat, tinchlik, halollik, mehr-oqibat va o’zaro hurmat kabi tamoyillarni qamrab oladi. Ularning uyg’unligi o’quvchilarning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhimdir.

Boshlang’ich ta’lim o’quvchilarida madaniyatlararo muloqotni shakllantirish ko’nikmasi o’z fikrini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash va kelishmovchiliklarnitinch yo’l bilan bartaraf etish orqali shakllanib boradi. Masalan,

“Bir qadriyat, turli madaniyat” mavzularida kechalar o’tkazish, turli xalqlar ertaklari haqida suhbatlashish madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarni birgalikda anglashga yordam beradi. Boshlang’ich ta’limda milliy o’zlik va global dunyoqarashni uyg’un shakllantirish o’qituvchidan maqsadga yo’naltirilgan pedagogik yondashuvni talab qiladi. Ushbu jarayonni shakllantirishda oila bilan hamkorlik muhim vazifalardan biridir. Chunki boshlang’ich sinf o’quvchilari ota-onalari yoki oila a’zolarini milliy an’analar va xalqlarning madaniyatlari yuzasidan turli xil savollarga tutishi mumkin.

Asqarova O’.M**.** va hammualliflar tomonidan tayyorlangan *Pedagogika Nazariyasi va tarixi* darsligida pedagogik faoliyat, ta’lim-tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslari hamda ularning qonuniyat va tamoyillari yoritilgan[3].

Ta’lim jarayonida quyidagi nazariy va amaliy usullardan foydalanish mumkin:

1. **Milliy merosni o’rganish:** ertaklar, maqollar va milliy an’analar haqidagi matnlarni tahlil qilish.
2. **Madaniyatlarni qiyoslash:** turli xalqlarning bayramlari, kiyimlari va urf-odatlarini o’rganib, ularning o’zaro o’xshash va farqli jihatlarini aniqlash.
3. **Guruhli faoliyat:** o’quvchilarni kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashgayo’naltirish.
4. **Ijodiy topshiriqlar:** milliy qadriyatlar yoki turli madaniyatlar haqida rasm, hikoya va taqdimot tayyorlash.
5. **Matnlar bilan ishlash:** milliy va jahon adabiyotidan yoshga mos parchalar orqali madaniy tushuncalarni muhokama qilish.
6. **Muloqot mashqlari:** turli fikrlarni tinglash, savol berish va hurmat bilan munosabat bildirishni o’rgatish.

Ushbu usullarni ona tili, o’qish, tarbiya va boshqa fanlar bilan bog’lab qo’llash maqsadga muvofiq bo’ladi.

Boshlang’ich ta’limda milliy o’zlik va global dunyoqarashni uyg’un shakllantirishda jadidlar asarlarini integratsiya qilish ham muhim pedagogik imkoniyatlardan biridir.

Jumladan, Abdulla Avloniyning *Turkiy guliston yoxud axloq* asaridagi yaxshi xulq, ilmga intilish va insoniy fazilatlar haqidagi qarashlardan foydalanish o’quvchilarda axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishga yordam beradi[4].

Mahmudxo’ja Behbudiyning *Padarkush* dramasida esa ilm-ma’rifatning ahamiyati va jaholatning salbiy oqibatlari yoritiladi[5]. Ushbu asarlarning g’oyalarini yoshga mos hayotiy vaziyatlar, savol-javob va guruhli muhokamalar

orqali o’rganish o’quvchilarga milliy qadriyatlarni anglash, mustaqil fikrlash hamda boshqa madaniyatlarga ochiq munosabatda bo’lishga o’rgatadi.

Xulosa

Boshlang’ich ta’limda milliy o’zlik va global dunyoqarashni uyg’un shakllantirish barkamol, ma’naviy yetuk va keng fikrlaydigan avlodni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Milliy qadriyatlarni o’rgatish o’quvchilarning o’z xalqiga mansublik tuyg’usini mustahkamlasa, boshqa madaniyatlarni o’rganish ularda bag’rikenglik, hamkorlik va ochiq dunyoqarashni rivojlantiradi. Ta’lim jarayonida qiyosiy tahlil, guruhli faoliyat, ijodiy topshiriqlar va madaniyatlararo muloqot mashqlaridan foydalanish ushbu maqsadlarga erisishga xizmat qiladi. O’qituvchi milliy merosni qadrlash va boshqa xalqlarga hurmatni birgalikda rivojlantiradigan ta’lim muhitini yaratishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. *Global Citizenship Education: Topic and Learning Objectives. –Paris: UNESCO,2025.*

2. UNESCO.*Languages Matter: Global Guidance on Multilingual Education.–Paris: UNESCO,2025.*

3. Asqarova O’.M. , Usmanova S.U. , Zamilova R.R. , Tashibekova M.X. , Abdusamiyev D.A. *Pedagogika nazariyasi va tarixi.* 1-qism. – Namangan: Usmon Nosir media, 2022. – 376b.

4. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 96 b.

5. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.